



TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA BU JARAYONDA DARS O'TISH TURLARI

Shermetova Dilnoz Mirzatillayevna

Yusupova Saodat Xolmuradovna

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani

1-son kasb hunar maktabi maxsus fan o'qituvchilari

Annotatsiya: Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta'lim sifati, samaradorligini oshirishi muhim qoida sifatida qabul qilinadi. Ushbu maqolada ham ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar va bu jarayonda dars o'tish turlari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogik texnologiya, metod, dars, chuqur bilim, ta'lim maqsadi, dars turlari, axborot, bilim, jarayon.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqloq g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur. Bunda ta'lim tizimi asosiy vazifani bajaradi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limning maqsadi, jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanishdir. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz



asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi.

Dars mobaynida yangicha metodlardan foydalanish, zamonaviy axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirish va asosiysi o'quvchilarning ruhiyatini ko'tarish uchun albatta rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz quyida ayrim zamonaviy dars turlari bilan tanishamiz.

Ma'ruza darsi - Bunda o'qituvchi ma'ruza tayyorlash uchun bir necha mavzularni o'quvchilarga taqsimlab beradi va ma'lum vaqt davomida tayyorgarlik ko'rish uchun fursat yaratadi. Muhim o'rinlarni ko'chirma qilish, kerak joylarga ko'rgazma materiallar va kartochkalar tayyorlashni topshiradi. Tayyor bo'lgan o'quvchi o'z mavzusi yuzasidan ma'ruza qiladi. Qolgan o'quvchilar ma'ruzachiga savollar berib to'plagan ma'lumotlarini yanada mustahkamlab olishadi. Ma'ruza darslaridan o'quvchi hajmi katta bo'lgan materialni qisqa muddatda o'rganish, o'zlashtirish, bayon qilish va uni mustahkamlash ko'nikmasini egallaydilar.

2. *Seminar darsi* - Darsliklardagi katta mavzular jamlangan materiallar to'liq o'tib bo'lingandan so'ng mavzular o'quvchilarga qaytadan bo'lib beriladi. O'qituvchi yordamida reja tuzilib, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi. Har bir o'quvchi o'z mavzusining mohiyatini ochib berganidan so'ng sinfdagi boshqa o'quvchilar so'zga chiqib mavzuni to'ldirishi mumkin bo'ladi. Dars oxirida har bir so'zga chiqqan, munosabat bildirgan, fikrlarini to'ldirgan ishtirokchilarning faoliyati tahlil qilindi, har biri haqida alohida fikr aytilib baholanadi. Seminar darslari o'quvchilarda mustaqil izlanish va javobgarlik

hissasini tarbiyalaydi.

3. *Laboratoriya darsi*- O'quvchilar turli o'quv predmetlari bo'yicha tajribalar, turli qurilmalar yordamida sinov ishlari olib borishi mumkin. Laboratoriya darsi amaliy dars ham deb yuritiladi. Amaliy darslarda o'quvchilar

guruhlariga ajralib, turli eksperimental topshiriqlarni bajarishadi.

4. *Konferensiya darsi* - O'qituvchi konferensiya darslarini tashkil etishdan avval dars mavzusi, maqsad va vazifalarini aniq belgilab olishi, mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini shakllantirilishi talab etiladi.

5. *Bahs-munozara* - O'quvchilarga bir kun oldin mavzu beriladi. O'quvchilar mavzuni o'qib, savollarga javob topib, darsda o'quvchilardan o'sha savollarga javoblar bahs-munozara asosida baxolanadilar.

6. *Musobaqa darsi* - Fanni o'qitishining samarali darslaridan biri hisoblanadi. Bunday darslarda har bir alohida shaxslar yoki o'quvchilar guruhlari bir-biri bilan musobaqalashadilar. Albatta bu usul qolgan o'quvchilar uchun foydali, sababi o'qimagan o'quvchilar uchun bilib olish imkoniyati yaratiladi.

7. *Va'zxonlik darsi*- Bunday darslar, asosan, yuqori sinflarda amalga oshirilib, o'qituvchi ma'ruzasidan iborat bo'ladi. O'quvchilar ko'proq tinglovchiga aylanadilar. Va'zxonlik



darlarida o'qituvchi nutqining izchilligi va ravonligi, aniq reja asosiga qurilishi va ko'rgazmalilikka asoslanishi mumkin sanaladi.

8. *Ssenariy darsi* - Ta'lim amaliyotiga kirib kelgan bu dars turi ham o'quvchilarni bevosita ijodga undashi bilan ahamiyatlidir. O'rganilgan asarlar matni yuzasidan ssenariy tuzish o'ziga xos ijod jarayoni. O'qituvchi avval o'quvchilarga asar mazmuni yuzasidan ssenariy tuzish yo'llarini o'rgatadi. Keyingi darsda o'quvchilar tomonidan tuzilgan ssenariylarning xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu jarayonda o'quvchilar mustaqil fikrlash va ijod qilishga imkon yaratiladi va yo'nalish beriladi.

9. *Sinov darsi* - Bu tipdagi saboqlar ikki turli bo'lib. Sinov darslarining birinchi shaklida o'qituvchi yirik boblarni ma'ruza tarzida o'tadilar. O'quvchilarga

materiallarni umumiy tarzda qamrab oluvchi savollar beriladi. Keyingi darslarda shu savollarga javob olinadi. Darsning bu turi tarbiyalanuvchilarni barcha savollarga javob topish uchun izlanishga chorlaydi. Yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan qo'shimcha ishlash va past o'zlashtirganlarga yordam berish uchun sharoit yaratiladi va biriktirib qo'yiladi.

Sinov darslarining ikkinchi turi o'quv yili davomida o'tilgan materiallar mazmunidan kelib chiqqan holda savollar berish bilan farqlab olinadi. O'quvchilar tayyor bo'lgan paytlarida yoki ro'yxat asosida javob berishlari mumkin. Sinov darslari o'quvchilarning o'tilgan materiallarni to'liq bilishiga e'tibor qaratiladi.

10. *Muammoli dars* - Darsda suniy muammoli vaziyat vujudga keltiriladi. Bunda o'quvchilar muammo yechimini yakka holda yoki guruh bo'lib izlashlari mumkin. Dars davomida bir necha muammoli savollar o'rtaga tashlanib, umumiy xulosa chiqariladi. Muammoli vaziyat o'quvchilarda aqliy izlanish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang-barangligi - o'quvchining imkoniyati va qiziqishlaridan kelib chiqib berilayotgan takliflarni tanlash imkoniyatini beradi. O'qituvchilarning har xil sathli o'qitishini zamonaviy axborot qurollaridan foydalangan holda olib borishi zamon talabi uchun ayni muddaodir.

Hozirgi vaqtga kelib maktablar va oliy ta'lim muassasalarida ham baholash mezonlari elektronlashmoqda. Bu bir qator qulayliklarni yaratadi. Birinchidan qog'ozbozlikka chek qo'yishda, ikkinchidan shaffoflikni ta'minlashda yordam beradi. Darsliklar uchun resurslarni keng foydalanish uchun ham bu tizim keng imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytsak ta'lim muassalarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabidir. Pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin. Natijada, mantiqiy bog'langan qisqa yo'llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o'quvchi ularning natijasini ma'lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari yana yangi qadamlar qo'yiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziev E. Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. – «Xalq ta'limi», 1999- yil 6-son
2. A.G'ulomov, X.Nematov. Ona tilim mazmuni T., 1995.
3. Almetov N.SH. Pedagogika. Olma ota.2002.
4. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G'. Salohitdinova “Pedagogik texnologiya” T. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. “Fan” nashriyoti. 2008.
5. J. G'. Yo'ldosheva, F. Yo'ldosheva, G'. Yo'ldoshev “Interfaol ta'lim sifat kafolati” T. 2008.